



XORIJLIKLARGA O‘ZBEK TILINI O‘RGATISHNING NOAN‘ANAVIY SHAKLLARI

Xodjayeva Mavluda Chori qizi,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

2-kurs magistranti

fs.mavluda@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15204508>

Annotatsiya. Til o‘qitishda zamon talablaridan kelib chiqqan holda yangicha yondashuv va usullar vujudga kelmoqda. Qo‘llaniladigan ba‘zi usullar ularning samaradorligini ko‘rsatadi, boshqalari esa hech qanday natija bermaydi. Chunki bugungi kunda til o‘rganuvchilarning talablari inobatga olinmasa, til o‘rgatish jarayonida eng mukammal ishlab chiqilgan dastur yoki metodlar ham foydasiz bo‘lib qolaveradi. Ushbu jihatlarni hisobga olgan holda, bizning maqolamizda tilni virtuallikka asoslangan o‘qitish usullari muhokama qilinadi. Zero, zamonamiz odamlari ilg‘or texnologiya va virtuallikka asoslangan turmush tarziga o‘rganib qolgan. Shuning uchun maqolada har bir yaratilgan dastur va metodlarni bugungi kun talablaridan kelib chiqib ishlab chiqish kerakligi haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: virtuallik, subtitrlar, kompyuter o‘yinlari, onlayn do‘stlik, ijtimoiy tarmoqlar, frazeologik birliklar.

Til o‘qitishda bugungi kunda zamon talabidan kelib chiqib yangidan yangi yondashuvlar, metodlar paydo bo‘lmoqda. Ayrim metod va qo‘llanayotgan usullar o‘z samarasini ko‘rsatsa, ayrimlari esa hech qanday natija bera olmayapti. Chunki til o‘rganuvchilarning bugungi kundagi ehtiyoj va talablari inobatga olinmas ekan juda mukammal tuzib chiqilgan dastur yoki metodlar ham til o‘rgatish jarayonida foydasiz qolaveradi. Shuning uchun ham bir tilni boshqa millat vakiliga o‘rgatish jarayonida birinchi navbatda o‘rganuvchining ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olmaslikning iloji yo‘q. Misol uchun, rivojlangan mamlakat vakillaridan biriga o‘zbek tilini faqat kitob, daftar, doska yordamida an‘anaviy usulda o‘rgatib ko‘ring, u o‘rganuvchi o‘zbek tilini o‘rganishdan tezda zerikadi va voz kechadi. Negaki, u rivojlangan texnologiya va virtuallikka asoslangan hayot tarziga ko‘nikib bo‘lgan. Shuning uchun ham har bir yaratilgan dastur va usullar bugunning ehtiyojidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

O‘zga tilli insonlarni o‘qitishda eng samarali usul – bu ularning kundalik odatlariga asoslangan til o‘qitish usullaridan foydalanishdir. Bugungi kunda insonlarning umumiy odat tarziga kirgan faoliyatlar asosan ijtimoiy tarmoqlarga, internet olamiga, virtuallikka asoslangan. Odamlar kino ko‘rish, qisqa videolar tomosha qilish, soatlab Facebook, Telegram va Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazishni o‘zlarining eng sevimli odatlariga aylantirib bo‘lgan. Til o‘rganuvchilarni bu kabi odatlaridan ajratmagan holda, o‘rgatilayotgan til shu kabi



odatlarga singdirilsa, til o‘rganish koeffitsiyenti 2-3 barobarga ortishi mumkin. Masalan, deyarli barcha o‘qituvchilar uchun muammo bo‘lgan yangi so‘zlarni yodlatishda dangasa o‘quvchilar uchun yangi so‘z yodlash emas, qisqa tekst yoki video orqali talaffuzini o‘xshatib takror tarzda audio yozish ularning yangi so‘zlarni ongsiz ravishda yodlashlariga yordam beradi. Virtual dunyoni maqsadli til o‘qitish dasturiga kiritish o‘rganuvchilar uchun juda samarali bo‘lishi mumkin, chunki virtual dunyo ijtimoiy muhitni rivojlantirish orqali chuqur til o‘rganish muhitini taklif qiladi.

Til o‘rganishda virtual dunyoning afzalliklari juda ko‘p bo‘lib, shulardan biri – til o‘rganuvchilar virtual dunyo orqali boshqa mamlakatlarning madaniyati, iqlimi, insonlar yashash tarzidan boxabar bo‘lishidir. Bu narsa esa ularga yangi tilni o‘rganishga yana ham ko‘proq motivatsiya beradi.

Aniqlanishicha, odamlar maqsadli til o‘rganishda tili o‘rganilayotgan mamlakatda qancha ko‘p vaqt o‘tkazsa, ular shunchalik kamroq tashvishlanishadi va o‘zlariga bo‘lgan ishonchlari ortadi. Biroq, xarajat va vaqt cheklovlari tufayli barcha chet tilini o‘rganuvchilar maqsadli tilda so‘zlashadigan mamlakatga bora olishmaydi, ammo virtual dunyo bu holatga muqobil bo‘lgan muhitni bizga yaratib beradi. Tili o‘rganilayotgan mamlakat muhitida bo‘lmasak ham, biz o‘sha muhitni virtual olam orqali his qila olamiz.

Virtual dunyo real hayot voqealarini simulyatsiya qilish chet tilini o‘rganuvchilar uchun haqiqiy muloqotni kuzatish va ishtirok etish uchun muhit yaratadi. Bu chet tilini o‘rganuvchilarning maqsadli tilda gapirish chastotasini oshirishga yordam beradi. A.J. Onwuegbuzie maqsadli til muhitiga ta’sir qilish chet tilini o‘rganuvchilarning chet tilida gapirishga bo‘lgan ishonchini oshirishning ideal vositasi ekanligini ta’kidlaydi.

Bugungi zamonaviylashgan hayotda til o‘qitishda eski metodlardan foydalanish borgan sari samaradorligini yo‘qotib bormoqda. Negaki, insonlar bugungi kun bilan hamohanglikda yashaydi, bugungi qonun-qoidalarni qabul qiladi. Yangiliklar, o‘zgarishlar esa har kuni yangilanib turadigan voqea-hodisalar. Bu erinchoq inson hattoki fikrlashdan erinib, sun’iy intellekt yaratdiki, insonlar fikrlash funksiyasining ko‘p foizini sun’iy intellektga yuklab qo‘ydi. Internet dunyosi haqiqiy dunyodan o‘zib ketib, barcha odamlarni o‘ziga qamrab olgan bir paytda, yangi bir tilni o‘sha internet olamida yashayotgan insonlarni u olamdan ayirib o‘rgatib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham til o‘rgatish dasturlarini shu olam talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqish va doimiy takomillashtirib borish lozim. Bunda til o‘rgatayotgan o‘qituvchining asosiy faoliyati virtual olamdagi barcha yangilik, xabarlar, dasturlar va ko‘ngilochar videolardan til o‘rgatishda maqsadli foydalanishni bilish hisoblanadi.



Quyida o‘qituvchilar uchun yangi tilni o‘rgatishda ijtimoiy virtuallikdan qay tartibda foydalanish mumkinligi haqida bir qancha tavsiyalar berib o‘tilgan.

Har kuni millionlab odamlar ko‘rayotgan qisqa videolardan til o‘rgatishda juda samarali foydalanish mumkin. O‘zbek tilida gapirish ko‘nikmasi (talaffuzi)ni oshirish uchun o‘quvchining yoshiga, qiziqishiga mos ravishda qiziqarli, qisqa va milliylikka yo‘g‘rilgan videolar til o‘rganuvchilari uchun ham qiziqarli, ham samarali bo‘ladi. O‘rganuvchilar shu kabi videolarga taqlid qilish usuli orqali talaffuzlarini to‘g‘irlashlari mumkin bo‘ladi. Shunda o‘quvchi kunlik odatlarga aylanib ulgurgan bu kabi videolarni ko‘rishda davom etadi, faqat bu holat maqsadli bo‘ladi. Chunki, insonlar odatlanib qolgan narsalardan voz kechishlari juda qiyin va ko‘pincha buni xohlashmaydi ham. Yangi so‘zlarni yodlashda ham bu kabi qisqa videolar yaxshigina foyda beradi. Sababi, birinchidan, qisqa videolarda asosan hozirgi omma nutqidagi so‘zlardan foydalaniladi. Ikkinchidan, 10 ta yangi so‘zni oq qog‘ozga ketma-ket yozib o‘rganuvchiga yodlashga bergandan ko‘ra, ko‘rgan qisqa videolaridan 10 ta yangi so‘zni yodlab kelish topshirig‘i ular uchun ham qiziqarli, ham samarali so‘z yodlash usuli bo‘lishi mumkin. Ushbu usul ayniqsa yoshi katta til o‘rganuvchilar uchun juda foydali. Chunki, xotirasi yomonlashganligi tufayli yangi so‘zlarni yodlab qolish ular uchun ancha qiyin bo‘ladi. Agar qisqa videolar orqali so‘z yodlanadigan bo‘lsa, ham ko‘rish, ham eshitish xotirasi ishlaydi va eng muhimi o‘rganuvchilarning o‘zlari qiziqqanligi sababli yangi so‘zlarning xotirada saqlanib qolish darajasi sezilarli ortadi. Bu usulni yakka tartibda yoki gruppada qo‘llashda o‘qituvchi o‘z tajribasi va mahoratini ishga solishi kerak. O‘qituvchi bu usulni qo‘llash jarayonida o‘rganuvchini nazoratga olishi kerak. Negaki, ba’zi tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, raqamli qurilmalar qulayligi nafaqat o‘quvchilarga "istalgan joyda va istalgan vaqtda o‘qish" maqsadiga erishishga yordam beradi, balki o‘quvchilarning ijtimoiy media va raqamli qurilmalarga qaram bo‘lib qolish xavfini keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham o‘rganuvchiga o‘qituvchi tomonidan mavzulashtirilgan qisqa videolar berilishi lozim. Masalan, bir safar ovqatlanishga oid videolardan so‘zlar yodlanadigan bo‘lsa, ikkinchi safar sayohatga oid videolarni topib ko‘rish va ulardagi yangi so‘zlarni yodlash topshiriqlari beriladi. Shu tarzda kundalik hayotdagi doimiy odatga aylanib qolgan foydasiz mashg‘ulotlardan til o‘qitishda maqsadli foydalaniladi.

Ingliz tilini o‘rganuvchilar talaffuzni o‘stirishda qo‘llaydigan “shadowing” metodini o‘zbek tilini o‘rganishda ham qo‘llash mumkin. Bunda o‘rganuvchining yoshiga, qiziqishiga, ijtimoiy kelib chiqishiga qarab o‘zbek mashhurlari nutqidan parchalar tavsiya etiladi va ularga nutqini xuddi o‘sha mashhurlardek takrorlab, o‘z ovozlarni audio tarzda o‘qituvchiga taqdim etish topshirig‘i beriladi. O‘zbek tilini o‘rganuvchilar mashhurlarga taqlid qilgan holda o‘zbek tilidagi talaffuzlarini

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



mukammallashtiradi. Shu bilan birgalikda ayrim videorolik, kinofilm va boshqa tavsiya etilayotgan materiallar subtitrlar bilan berilsa, til o‘rganuvchida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish bilan birga, to‘g‘ri yozish ko‘nikmalari ham shakllanib boradi.

Hozirgi kunda nafaqat yoshlar, balki kattalar ham kompyuter va telefon o‘yinlarini o‘ynashni yoqtirishadi. Bu kabi o‘yinlar insonlarga kundalik hayotdagi tashvishlardan chalg‘itishda eng katta ta‘sir vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, maktab o‘quvchilari bu kabi o‘yinlarning ashaddiy muhlislari bo‘lishadi. Xo‘sh, o‘zbek tilini o‘rgatishda bu kabi o‘yinlardan qanday tarzda foydalanish mumkin? Bu qiziqarli o‘yinlarni qanday qilib bosqichma-bosqich o‘rganuvchiga sezdirmasdan til o‘rganish o‘yinlariga aylantirish mumkin? Dastlab o‘ynalayotgan o‘yinlar orqali til o‘rganishni o‘rganuvchiga talab sifatida qo‘ymaslik lozim. Negaki, agar o‘rganuvchining ongida nimanidir o‘rganish kerakligi, ya‘ni faoliyat bajarish kerakligi tushunchasi paydo bo‘lsa, miya tezda o‘zini himoyalaydi va o‘rganuvchida bu faoliyatni bajarmaslik yoki zerikish tuyg‘usi paydo bo‘ladi. Ularning miyasida o‘yinlar orqali maza qilib xordiq chiqarish semasini saqlagan holda, o‘yindagi har bir holat, so‘z va bosqichlardan til o‘rgatishda foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilarga o‘zbek tilida yaratilgan “Shumtaka”, “Boriga baraka” va boshqa shu kabi o‘yinlarini o‘ynashga ruxsat beriladi. Ularga bir safar o‘yinda foydalanilgan ba‘zi so‘zlarni yodlash uyga topshiriq sifatida berilsa, bir safar o‘sha o‘yinning o‘rganuvchi tilidagi variantini o‘ynash va yodlagan so‘zlarini o‘z tilida qanday atalishini va qanday o‘rinlarda ishlatilishini bilish topshirig‘i beriladi. Keyingi safar o‘yindagi harakatlarning o‘zbekcha nomlanishini o‘rganish topshirig‘i berilsa, boshqa safar aynan o‘rgangan so‘zlariga misollar yozib kelish yoki o‘sha harakatlarni ifodalaydigan so‘zlar mavjud qisqa videolar topib kelish vazifasi beriladi. Bu usul orqali o‘rganuvchi so‘zlarni kontekst ichida yodlaydi va o‘sha so‘zlarni o‘zi kontekstda qo‘llashni o‘rganadi, natijada so‘z yod olish ham qiziqarli, ham samarali mashg‘ulotga aylanadi.

Kino ko‘rish barcha odamlarning bo‘sh vaqtida eng yaxshi xordiq chiqarish vositasi desak, adashmagan bo‘lamiz. Insonlarning barcha xarakter xislatlari, yashash tarzi, o‘ylash, fikr yuritish uslubi, millatlarning milliy o‘ziga xos madaniy holati, umuman olganda, insoniyatga oid barcha tushunchalar kinolarda mujassamlashadi. Shuning uchun ham til o‘rganish uchun kino bitmas-tuganmas manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ayrim faqat o‘zbek millatiga oid milliy xarakterni ifodalovchi so‘z va frazeologik birliklarni ham biz aynan kinolardan topamiz.

Bundan tashqari, kinolar va multfilmlar o‘zbek tilini jonli muhitda ko‘rsatib bera oladi. Boshlang‘ich darajadagi til o‘rganuvchilariga o‘zbek milliy kinolaridan qisqa lavhalar olinib, subtitr bilan havola etilganda ularning tinglab tushunish va o‘qish ko‘nikmalari shakllanishiga katta yordam beradi. Keyinchalik, o‘rganuvchining til

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



bilish darajasidan kelib chiqqan holda kinolavhalar orqali turli xil topshiriqlarni ishlab chiqish mumkin. Masalan, kinolavhani ovozsiz qilib o‘rganuvchilarga kinodagi qahramonlarga ovoz berish, o‘zbek tilidagi tayyor qoliplarni yodlashga yordam beradi. Yoki kinoqahramonlar nutqini takrorlash orqali talaffuzdagi kamchiliklarni to‘g‘irlash mumkin. Bundan tashqari, o‘rganuvchilar kinolavhada eshitgan so‘zlarni daftarga yozish orqali so‘zlarni to‘g‘ri yozish ko‘nikmasini rivojlantirishlari mumkin. Umuman olganda, kinolavhalar orqali o‘rganuvchining darajasiga mos topshiriqlar ishlab chiqish o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. O‘qituvchi tomonidan namunada berilgan kabi subtitr bilan qisqa kino lavhalar tayyorlash dars faoliyatining qiziqarli o‘tishini ta‘minlab beradi.

Ijtimoiy tarmoqlar hozirgi kunda do‘stlashishning eng qulay usuliga aylangan. Ijtimoiy tarmoqlarning bu ustunlik tarafidan nega til o‘rganishda foydalanmasligimiz kerak? Onlayn do‘stlashishning ba‘zi yomon tomonlari bo‘lishi mumkin, ammo til o‘rganishda ijtimoiy tarmoqlar orqali do‘stlashish til o‘rganuvchilari uchun faqat foyda keltiradi. Ayniqsa, bu do‘stlar o‘qituvchi tomonidan tavsiya qilinsa, chunki o‘qituvchi o‘quvchilarining xarakterini, dunyoqarashini bilgan holda ularga mos tushadigan insonlarni do‘st sifatida taklif qiladi. Masalan, keksa yoshdagi til o‘rganuvchiga kichkina yoshdagi, aytaylik, tili chiqib, juda ko‘p savol beradigan yoshga yetgan bolalarni do‘st sifatida biriktirilsa, til o‘rganishda inson omili juda faol ishlaydi. Negaki, bu yoshdagi bolalar ko‘p savollar berish orqali keksa yoshdagi til o‘rganuvchilarni o‘zbek tilida gapirishga undasa, teng yoshdagi keksalarning esa jismoniy va tajribaviy o‘xshashliklari ularni bir-biri bilan muloqot qilishga undaydi. Yoki bu usul orqali qiziqishlari o‘zaro yaqin bo‘lgan til o‘rganuvchi bilan o‘zbek tili ona tili bo‘lgan bir inson o‘rtasida muloqot yuzaga kelishi juda oson kechadi. Natijada, o‘zbek tili o‘rganuvchisi uchun muloqot muhiti yaratiladi. Bu usulni qo‘llashda o‘qituvchi o‘zbek tili ona tili bo‘lgan inson bilan til o‘rganayotgan inson o‘rtasida boshqa bir vositachi til yo‘qligiga, ular muloqotni amalga oshirish uchun faqat o‘zbek tilidan foydalanishga e‘tibor qaratish kerak.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, ijtimoiy tarmoqlar insonlar hayotining ajralmas bir qismiga aylanib ulgurgan. Ayrim insonlar, hattoki, ijtimoiy tarmoqlarsiz hayotini tasavvur ham qila olishmaydi. Agar shu kabi insonlarga o‘zbek tilini o‘rgatish vazifasi yuklatilsa, siz ularni hayotining bir qismi bo‘lmish ijtimoiy tarmoqlardan ajratib, qo‘liga kitob, qalam tutqazib ko‘ringchi, siz ularning hayotini barbod qilgan dushmanga aylanasiz qolasiz. Chunki ular ijtimoiy tarmoqlardagi virtual hayotga allaqachon o‘rganib bo‘lishgan. Bu kabi insonlarni to‘g‘ri hayot tarziga o‘rgatish o‘qituvchilarning vazifasi emas, balki ularning vazifasi qanday vaziyatda bo‘lsa ham yangi tilni o‘rgatish. Shunday ekan, o‘qituvchi til o‘rgatish vazifasini ularning



dunyosida amalga oshirishi lozim. Ishoning, bu kabi insonlarga ijtimoiy tarmoqlar orqali til o‘rgatish boshqa til o‘rganuvchilar bilan solishtirganda juda oson kechadi. Yuqoridagilarga qo‘shimcha tarzda, “Mening ijtimoiy tarmoqlarim” metodi bu kabi insonlarga til o‘rgatishda 100 % o‘z samarasini beradi. Til o‘rganuvchi qaysi ijtimoiy tarmoqdan foydalansa, unga shu ijtimoiy tarmoqda account ochib, barcha yozuvlarni o‘zbekcha yuritish topshirig‘i beriladi. Misol uchun, Instagram, Telegram va YouTubedan foydalanuvchi til o‘rganuvchilarga doimiy tarzda o‘zbekcha post qo‘yish orqali ularning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish, qo‘yilgan postlarni o‘qish orqali o‘qib tushunish ko‘nikmasi ustida ishlash, Telegramda ovozli xabardan foydalanish va kelgan o‘zbekcha ovozli xabarlarni eshitish orqali eshitib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish, har xil video va audio tayyorlash va ularni post qilish orqali gapirish ko‘nikmalarini o‘stirish mumkin. Shu bilan birgalikda, bu mashg‘ulotni qiziqarrog‘ qilish uchun o‘rganuvchilar o‘rtasida kim ko‘proq “follower” (obunachi)lar yig‘ish musobaqasini ham o‘tkazish mumkin. Bu kabi raqobat ularning ijtimoiy tarmoqlar bilan birgalikda o‘zbek tilini o‘rganishda o‘z ustida yana ham ko‘proq ishlashlariga undaydi.

Virtual dunyo keyingi 20 yillikda eng samarali o‘rganish vositasi bo‘lishi mumkin, chunki u o‘quvchilarga hayotiy o‘rganish tajribasini beradi. Bundan tashqari, virtual dunyo turli tillar, diqqatga sazovor joylar, holatlar, harakatlar orqali o‘quvchilarning idrokiga ta’sir qiladi, yanada interaktiv o‘quv muhitini yaratadi. Virtual dunyo o‘quvchilarning o‘zaro aloqada bo‘lishlari va turli xil til elementlarini kuzatishlari mumkin bo‘lgan tajriba muhitlarini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Onwuegbuzie, A. J. (2003). *Enhancing second language speaking proficiency through target language environment exposure*. Language Learning, 53(1), 89-119.
2. Musulmanova N.R. O‘zbek tilini o‘rgatishda duch kelinayotgan ba’zi fonetik muammolar. «Инновации в системе образования: новые горизонты для молодежи в науке, технологиях и бизнесе» V-Традиционная Международная научно-практическая онлайн-конференция. –Ташкент, 2025, 1-том, 361-364-с.
3. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12662499>